# PREZIDENT MAKTABLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Daryabaeva Aygul Batırbaevna**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Nukus filialining o'quv bo'limi inspektori.

*https://doi.org/10.5281/zenodo.11199957*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tshkil etilgan Prezident maktablarining faoliyati bilan yaqindan tanishib, boshqa umumta'lim maktablari bilan solishtirish va tahlil qilish ishlari ko'rib chiqildi. Bugingi kunda Prezident maktabi bitiruvchilarining chet el davlatlarining nufuzli oliygohlarida grant asosida o'qishga qabul qilinganliklarini ham yozib o'tishga harakat qildim.*

*O'qituvchilarning haq-huqulari, Yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlashda asosiy unsurlardan biriligi ta'kidlab o'tildi, bugingi kunda ishonch bilan ayta olamiz, o'qituvchilar Davlatimiz Rahbarining nazoratida ekanligi hamma pedagog xodimlarga kuch va g'ayrat bag'ishlaydi.*

***Kalt so'zlar:*** *Metod, dars jarayoni, umumta'lim maktablari, boshlang'ich sinf,* kadrlar, *chet el ta'limi, yuqori sinf. v.h.*

# FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRESIDENTIAL SCHOOLS

***Abstract.*** *In this article, the activities of the Presidential schools established in the Republic of Uzbekistan were closely examined, compared and analyzed with other general education schools. Today, I tried to record the admission of the graduates of the Presidential School to prestigious universities of foreign countries on the basis of a grant.*

*It was emphasized that the rights of teachers are one of the main elements in strengthening the foundation of New Uzbekistan, today we can say with confidence that the fact that teachers are under the control of the Head of our State gives strength and motivation to all pedagogues.*

***Keywords:*** *Method, teaching process, general education schools, primary class, personnel, foreign education, upper class. and so on.*

# ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРЕЗИДЕНТСКИХ ШКОЛ

***Аннотация.*** *В данной статье внимательно изучена, сопоставлена и проанализирована деятельность Президентских школ, созданных в Республике Узбекистан, с другими общеобразовательными школами. Сегодня я также постарался зафиксировать поступление выпускников Президентской школы в престижные вузы зарубежных стран на основе гранта.*

*Подчеркивалось, что права учителей являются одним из основных элементов укрепления основ Нового Узбекистана, и сегодня мы можем с уверенностью сказать, что*

*тот факт, что учителя находятся под контролем Главы нашего государства, придает силы и мотивацию всему преподаванию.*

***Ключевые слова:*** *Метод, учебный процесс, общеобразовательная школа, начальный класс, кадры, зарубежное образование, старший класс и т.д.*

Tarixda yer talashib, suv talashib katta-katta urushlar, qirg‘in-barodlar ro‘y berganini ko‘rishimiz mumkin, XXI asrga kelib bu ishlar aql bilan bajarilmoqta. Yana ham tushinarli qilib qaytganimizda bilimlar jangi bugingi kunning dolzarb mavzusiga aylangan.

Bu yo‘lda Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, Davlat Rahbarining yangidan-yangi g‘oya va takliflari, biz uchun, ayniqsa bolalarimizning ta’limiga katta e’tibor ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori asosida “Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma’nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi … Davlat dasturiga muvofiq:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etilsin”[1].

Bu Davlatimiz rahbari tanlagan eng maqbul va to‘g‘ri yo‘l edi. Yangi O‘zbekistonni yaratishdagi dadil qadam va uzoqni o‘ylab joriy etilgan bu qaror, bolalarimizning chuqurlashtirilgan bilim bilan ta’minlanishi, yangi texnologiyalar bilan jihozlangan Prezident maktablarining yaratilishi, bu borada dastlabki qadam bo‘ldi. Bu qadam birinchilardan bo‘lib

Qoraqalpog‘iston Respublikasidan boshlanishi ko‘pgina ota-onalarni, bolalarni quvontirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”[2] degan gaplari, maktab o‘qituvchilarida katta g‘urur uyg‘otgani turgan gap.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

---

1 https://lex.uz/docs/-4208152
2 Prezident.uz

Prezident maktablariga nazar solar ekanmiz, yangidan-yangi binolar, yangi jihozlar, sport maydonchalari, eng quvonarlisi yuqori bilim va tajribalarga ega mahalliy va chet el professor o‘qituvchilari ta’lim berib kelishmoqda. Prezident maktabini bitiruvchilar chet davlatlarning nufuzli oliygohlarida grant asosida o‘qishga qabul qilinib kelinmoqda.

Har bir shaxs, shaxs bo‘lib kamolga yetgunicha ancha yo‘l va katta mehnat sarf qilishi sir emas, siz va biz bu yo‘lda ta’lim degan katta bir mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganimiz ayni haqiqat.

Shunday haqiqat ichida siz-u bizning qo‘limizga qog‘oz-qalam tutqazib, harf yozishni o‘rgatgan ustozlarning mehnati kattaligi, u zotlarning arzimagan oylik maoshga ishlab, u ham yetmaganiday dalalarda mehnat qilgan davrlari hech kimga sir emas.

Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar zamirida, pedagog xodimlarni ulug‘lash, ularning ancha yillar bo‘yi xo‘rlangan va toptalgan huquqlarini himoya qiluvchi yangi Qonun va Nizomlarning joriy etilishi orqasidan, yurtimizda ta’lim jarayoniga qaratilgan e’tibor kattaligidan daololat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig ‘ilishida ta’kidlab o‘tganidek: “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugindan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko ‘p vaqt yo ‘qotganmiz”[3].

Tadqiqot natijasidan ko‘rinib turibdikiy, dunyo standartlari asosida bugingi kunda yurtimizdagi umumta’lim maktablarida darslar tashkil etilmoqda. Yangi metod va yangi o‘qitish uslublari bugingi zamon talabi hisoblanadi.

Pedagog xodimlarning oylik maoshining keyingi 7-8 yil ichida sezilarli darajada oshirilganligining o‘zidan ham ayon bo‘lganidek, bu soha vakillari hamisha Davlatimiz va Prezidentimizning nazoratida turganligini sezinishimiz lozim.

## REFERENCES

1. https://lex.uz/uz/docs/-6008663
2. Prezident.uz
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-avgust kuni maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi

---

3 Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi.

4. Pirnazarov S.M.: "Qoraqalpoq teatrining shakllanib rivojlanishida chet va milliy dramaturgiyamizning sintezlashuvi" maqolasi. Talim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. 2023-yil, 225-bet
5. Pirnazarov S. Qaraqalpaq teatrinin' professionalliqa o'tiwinde da'slepki adimlar (1930-1939) maqalasi., Ilim ha'm ja'miyet jurnali. 2023-jil, 63-bet.